

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
TABIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov O'zbekistonda <i>Berberis integerrima</i> bunge tabiiy resurslarining zamonaviy holati	132
M.N.Valiyeva, G.S.Mirzayeva, D.M.Musayev O'zbekistonda Reduviidae oilasiga mansub (Heteroptera) yirtqich qandalalarning o'rganilish holati	142
M.B.Zohidova, G.M.Zokirova <i>Xanthogaleruca luteola</i> (Müller, 1766) barg qo'ng'izining mahalliy ekotizimlardagi tarqalishi va avlod almashinuvi.....	148
M.X.Akbarova, Z.A.Yusupova Botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrası shonli tarixi.....	153
O.M.Gafurova, Sh.A.Xalimov, B.M.Sheraliyev Shohimardonsoy va So'x daryolarida tarqalgan <i>Schizothorax eurystomus</i> Kessler, 1872 morfologik o'zgaruvchanlik xususiyatlarining qiyosiy tahlili	160
M.T.Isag'aliyev, G.Yuldashev, B.M.Qo'chqorov, I.M.Aktamov Tipik bo'z tuproqlar ekologik transformatsiyasiga sement sanotining ta'siri	167
D.T.Xo'jayev <i>Nerium oleander</i> L. "Hardy red" navining laboratoriya sharoitida urug' unuvchanligi	173
M.U.Mahmudov, I.I.Zokirov G'arbiy Farg'ona hududidagi Heteroptera: Pentatomoidea qandalalarining biotsenotik aloqalari va agroekotizimlardagi ahamiyati	177
D.B.Fayziyeva B.M.Sheraliyev Qoratog' va to'palang daryolarida tarqalgan <i>Iskandaria pardalis</i> (Turdakov, 1941) morfologik o'zgaruvchanlik xususiyatlarining qiyosiy tahlili	184
M.R.Shermatov, D.A.Almatova, B.D.Abdikaxorov <i>Cidaria distinctata</i> Staudinger, 1892 (Lepidoptera: geometridae, larentiinae)ning Farg'ona vodiysida qayd etilishiga oid.....	190
Sh.X.Yusupova, I.I.Zokirov <i>Acyrtosiphon pisum</i> (Harris, 1776) shirasining morfo- ekologik xususiyatlari (Shimoliy Farg'ona misolida)	194
O.T.Sobirov, X.R.Kaxxorova, S.A.Tojimatova, O'.Sh.Turg'unova <i>Lepidosaphes</i> avlodi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning bibliometrik tahlili	201
F.N.Mingboyev, S.M.Xaydarov, M.V.Obidov Mikrosuvo'tlari uchun ozuqa muhitini tayyorlash texnologiyasi (<i>Ankistrodesmus</i> misolida).....	211
D.R.Botirova, M.V.Obidov, D.R.Egamberdiyeva Evaluating substrate types for enhanced hydroponic strawberry yield and quality.....	216

QISHLOQ XO'JALIGI

G'.Yuldashev, Z.M.Azimov, I.N.Mamajonov Sho'rxoklarning singdirish sig'imi va kationlar tarkibining o'zgarishi	221
B.P.Расулзода, З.А.Джаббаров Взаимоотношение длины междоузлий, число стеблевых узлов и продуктивность колоса у сортов мягкой пшеницы	226
O.X.Sindarov Issiqxona sharoitida turli xususiyatlarga ega plyonkalarining qulupnay navlari barglaridagi biologik o'zgarishlarga ta'siri	232

GEOGRAFIYA

Y.I.Ahmadaliyev, D.X.Yuldasheva Farg'ona viloyatida demografik jarayonlar rivojlanishining hududiy xususiyatlari	237
E.G'.Maxkamov Hududiy turistik-rekreatsion tizimlarni geoekologik jihatdan baholash usullari	246
S.M.Xursanov Surxondaryo viloyatida aholi tashqi migratsiyaning hududiy tarkibi	249
Z.N.Tojiev, K.B.Omanova Jizzax viloyati mehnat migratsiyasining ba'zi jihatlari	257



UO'K: 39+314.06

**FARG'ONA VILOYATIDA DEMOGRAFIK JARAYONLAR RIVOJLANISHINING
HUDUDIIY XUSUSIYATLARI****ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ
ПРОЦЕССОВ В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ****TERRITORIAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF DEMOGRAPHIC PROCESSES
IN THE FERGANA REGION****Ahmadaliyev Yusupjon Ismoilovich¹** ¹Farg'ona davlat universiteti prorektori, geografiya fanlari doktori, professor.**Yuldasheva Dilshoda Xoshimovna²** ²Qo'qon davlat pedagogika universiteti geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasini o'qituvchisi.**Annotasiya**

Ushbu maqolada O'zbekistonning sharqiy viloyatlaridan biri bo'lgan Farg'onaning oxirgi yillardagi demografik jarayonlari tahlil etilgan hamda viloyatning hududiy xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan. Shuningdek, viloyat aholisining demografik jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy geografik, ijtimoiy-geografik vaziyatlariga ham batafil tavsif berilgan. Maqolada olingan natijalar asosida tegishli xulosalar berilgan.

Аннотация

В статье анализируются демографические процессы Ферганы, одного из восточных регионов Узбекистана, за последние годы, а также освещаются территориальные особенности региона. Дана подробная характеристика природно-географических и социально-географических условий проживания населения региона, влияющих на демографические процессы. В статье сделаны соответствующие выводы на основе полученных результатов.

Abstract

The article analyzes the demographic processes of Fergana, one of the eastern regions of Uzbekistan, in recent years, and also highlights the territorial features of the region. A detailed description of the natural-geographical and socio-geographical living conditions of the region's population, influencing demographic processes, is given. The article draws appropriate conclusions based on the results obtained.

Kalit so'zlar: Demografik jarayonlar, tug'ilish, o'lim, migratsiya, demografik omillar, aholi soni, nisbiy o'sish, shaharlar, shaharchalar.

Ключевые слова: Демографические процессы, рождаемость, смертность, миграция, демографические факторы, численность населения, относительный прирост, города, поселки.

Key words: Demographic processes, birth rate, death rate, migration, demographic factors, population size, relative growth, cities, towns.

KIRISH

Demografik jarayonlar – aholi tarkibi va sonining o'zgarishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy jarayonlar yig'indisidir. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tezlashuvi, iqtisodiyotning tezlik bilan modernizatsiya bo'lib borayotganligi hamda yashash uchun qulay mintaqalar aholisining tezlik bilan o'sib borayotganligi aholi geografiyasi eng asosiy mavzusi bo'lgan demografik jarayonlarni tez va ko'p o'rganishni talab etmoqda. Sababi aynan bugungi demografik jarayonlar mamlakatning ertangi kunini belgilaydi. 5 ta ustuvor yo'nalishga ega bo'lgan (Tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va migratsiya) demografik jarayonlarni O'zbekiston Respublikasining aholi soni jihatdan yirik bo'lgan Farg'ona viloyati demografiyasi orqali tadqiq etish amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Sababi viloyat aholisi 4 mln kishidan oshdi. Unda tashqari viloyatning katta shaharlari soni yana 1 taga ko'paydi. Demak, bu holatlar hududiy tadqiqotlarni talab etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekistonda aholishunoslik, demografik jarayonlar, oila demografiyasi, aholi prognozi masalalari bilan M.Q.Qoraxonov, I.R.Mullajonov, X.Salimov, E.A.Ahmedov, R.A.Ubaydullayeva, O.B.AtaMirzayev, A.A.Qayumov, Q.X.Abduraxmonov, A.S.Soliyev, L.P.Maksakova, M.R.Bo'riyeva, Z.N.Tojiyeva, N.Q.Komilova, G.R.Asanov, Z.Raimjonov, I.Turdimambetov, R.B.Qodirov, G.A.Xodjayeva, N.J.Yembergenov, Z.A.Temirov, M.Sh.Sabirova va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda amalga oshirishda avvalo har bir hududning aholi soni haqidagi, aholining tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish, migratsiya haqidagi ma'lumotlaridan, shuningdek so'nggi yillarda amalga oshirilgan demografik tadqiqotlar natijalari va unga oid adabiyotlardan foydalaniladi. Bu ma'lumotlar asosida aholining demografik faoliyatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy-ijtimoiy va geografik omillarni tizimli tahlili o'tkazildi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mita materiallaridan, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar va mavzuga oid adabiyotlardan foydalanildi hamda ular tizimli tahlil, qiyosiy-geografik, statistik kabi usullarda tadqiq etildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Farg'ona viloyati O'zbekistonning sharqiy qismida joylashgan Farg'ona tabiiy geografik okrugining bir qismidir. Uning maydoni 6,76 ming km kv bo'lib, Farg'ona tabiiy geografik o'lkasining 8,7 foizini, Farg'ona tabiiy geografik o'lkasi O'zbekiston qismining 36,5 foizini tashkil etadi. Viloyatning g'arbdan sharqqa uzunligi 155 kmni, shimoldan janubga kengligi uning g'arbiy qismida 55-60 kmni, sharqiy qismida 73-75 kmni tashkil etadi. Viloyatning So'x tumani janubiy chegarasi va Shohimardonning janubiy chegarasi bo'ylab kengligi 95 kmga yetadi.

Viloyat Farg'ona vodiysining g'arbiy va janubiy qismida joylashgan. U g'arbda va janubiy g'arbda Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati, janubda Qirg'iziston Respublikasining O'sh va Botken viloyatlari bilan chegaradosh, respublikamizda esa, shimolda Namangan va sharqda Andijon viloyatlari bilan chegaralanadi. Bu chegaralar ko'proq Sirdaryoning eski o'zani, qadimgi allyuvial tekisliklar va qisman daryobo'yi allyuvial tekisliklariga to'g'ri keladi. Viloyatning shimoli-g'arbidagi chegarasi Sirdaryo oqimi bo'ylab o'tadi [5].

Farg'ona viloyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, uning hududi geografik jihatdan yaxlit emas. Farg'ona tumanining bir qismi (Shoximardon) va So'x tumani tamomila Qirg'iziston hududining ichida eksklav holatda joylashgan.

Yer usti tuzilishi uncha murakkab emas, u janubdan shimolga tomon pasayib boradi. Shimolda mutloq balandlik dengiz sathidan 360-380 m, janubda eng baland nuqtalar 2200 m dan ortadi (Turkiston tizmasining shimoliy qismi, So'x tumani hududida Sariqamish davoni). Relyef shaklining bunday tuzilishi viloyat janubiy qismini tog'lardan oqib chiqadigan soylar suvi bilan sug'orish uchun tabiiy qulaylik yaratadi.

Iqlimi quruq kontinental: yillik yog'in-sochin miqdori Namangan viloyatidan sal ko'proq, Andijondan esa biroz kamroq (300-400 mm atrofida). Viloyatning shimoliy qismida Markaziy Farg'ona cho'llari - Qoraqalpoq va Yozyovon cho'llari mavjud bo'lib, ularning davomi qo'shni Namangan va Andijon viloyatlariga o'tib ketadi. Viloyatning chekka g'arbida, xususan, Beshariq va Furqat tumanlarining Sirdaryo qirg'og'ida cho'l hududlar bor (masalan, Qayroqqum qumlari). Ushbu cho'llarni o'zlashtirish faqat sun'iy sug'orish yordamida bo'lishi mumkin. Chegaradagi Sirdaryoni hisoblamaganda, bu yerda katta suv manbalari yo'q. Viloyatda bir necha soylar bo'lib bu jihatdan u Namangan viloyati kabi. Soylarning deyarli barcha viloyat relyef tuzilishiga monand janubdan shimolga qarab oqib o'tadi. So'x va Isfara soylari tog' oraliqlaridan tekislikka chiqish qismida panjasimon taralib, kichik konussimon yoyilmalarni hosil qiladi. Ular quyida juda ko'p kanal va ariqlarni suv bilan ta'minlaydi. Binobarin, So'x soyi Rishton, Samarqand, Nursuh ariqlariga, Kutsonsoy, Yanginayman, Tomosha, Avg'onbog', Shoximardon, Naymansoy, Turksoy, Sassiqlik kanal va ariqlarga taqsimlanib ketadi. Isfara daryosining quyi qismidan esa Oltiariq, Yangiqishloq ariqlari, Beshkapa, Isfara, Janubiy Isfara, Jo'ga, G'amboy, Rapqon kanallari boshlanadi.

Viloyatdagi Shohimardonsoy va Isfayramsoylarning ham ahamiyati katta. Shohimardonsoyning davomi Marg'ilonsoy, Oltiariqsoy va ulardan taralib ketgan ko'plab ariqlar muhim sug'orish manbai va agrolandshaftlarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Shoximardonsoy Isfayramsoy bilan birgalikda Farg'ona, Oltiariq, Qo'shtepa, qisman Toshloq va Yozyovon tumanlarini suv bilan ta'minlaydi. Isfara daryosining ta'sir doirasi esa asosan Beshariq tumani bilan

GEOGRAFIYA

chegaralanadi. Ayni vaqtda eng katta va sersuv So'x o'zining tipik geografik yoyilmasi (konusini) tashkil etgan va uning suvlari butun Qo'qon vohasi, ya'ni Dang'ara, Yaypan, Uchko'prik, Buvayda, So'x, Rishton, Furqat tumanlarini sug'oradi [2].

Viloyat hududida atmosfera yog'inlari joyning balandligiga, janubidagi tog' tizmalarining joylashishiga, yonbag'irlarning ekspozitsiyasiga va hududning orografiyasiga bog'liq ravishda o'zgarib turadi.

O'rtacha yog'in miqdori 100-125 mm atrofida, sharqiy qismlariga 225 mm gacha yog'in yog'adi. Viloyat hududiga havo massalari uning faqatgina g'arbiy qismidan kirib kelganligi sababli yog'inlarning taqsimlanishi shu holat saqlanib qoladi. Viloyatning g'arbiy qismlari shamolga teskari bo'lganligi sababli yog'inlar uning g'arbiga qaraganda sharqiy qismida ko'proqni tashkil etib, uning g'arbiy qismida 80-100 mm ni tashkil etadi.

Havoning nisbiy namligi eng past qiymati yoz davrining kunduzgi vaqtlariga to'g'ri keladi. Iyul oyining tush paytidagi havoning o'rtacha nisbiy namligi 30-35 % ga teng bo'lib, bu holat respublikaning boshqa hududlaridan nisbatan yuqoridir. Viloyat yoz oylarida keskin isib ketishi natijasida, vaqti vaqti bilan termik depressiya kuzatilib turadi.

Shamollarning yillik o'rtacha tezligi uncha katta emas. Shamollar asosan viloyatning g'arbiy qismidan (Xo'jand darvozasi) tog' oralig'ining tor darasidan o'tadi hamda viloyatning sharqiga qarab harakatlanadi. Yoz oylarida Mirzacho'l hududida bosimning tushishi oqibatida viloyatdan g'arbga qarab ham havo oqimining harakati kuzatiladi. Shamolning tezligi 3 m/s dan 15 m/s gacha yetadi va shamolli kunlar 40-50 kunni tashkil etadi. Mirzacho'l va Farg'ona vodiysi tutashgan qismlarda ba'zan 95-100 kungacha shamolli kunlar kuzatilishi mumkin. Shamollar asosan bahor va kuz fasllariga to'g'ri keladi [4].

Viloyat Farg'ona vodiysining g'arbiy va janubiy qismida joylashgan. U g'arbda va janubiy-g'arbda Tojikiston Respublikasining Sug'd viloyati, janubda Qirg'iziston Respublikasining O'sh va Botken viloyatlari bilan chegaradosh, respublikamizda esa, shimolda Namangan va sharqda Andijon viloyatlari bilan qo'shnichilik qiladi. Viloyatning shimoli-g'arbidagi chegarasi Sirdaryo oqimi bo'ylab o'tadi.

Farg'ona viloyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, uning hududi geografik jihatdan yaxlit emas; Farg'ona tumanining bir qismi (Shohimardon) va So'x tumani tamomila Qirg'iziston hududining ichida, eksklav holatda joylashgan.

Yer usti tuzilishi uncha murakkab emas, u janubdan shimolga tomon pasayib boradi. Shimolda mutlaq balandlik dengiz sathidan 360-380 m, janubda eng baland nuqtalar 2200 m dan ortadi (Turkiston tizmasining shimoliy qismi, So'x tumani hududida Sariqamish davoni). Relyef shaklining bunday tuzilishi viloyat janubiy qismini tog'lardan oqib chiqadigan soylar suvi bilan sug'orish uchun tabiiy qulaylik yaratadi.

Farg'ona viloyati ham, qo'shni hududlar singari, qazilma resurslarga boy emas. Bu yerda biroz neft va qurilish sanoati uchun xomashyo mavjud, xolos. Neft zaxiralarini qazib olish o'tgan asrning dastlabki yillarida chet mamlakatlar sarmoyasi yordamida (Belgiya va boshqalar) qazib olinib boshlagan. Respublikadagi eng qadimiy neft koni ham shu viloyatda (Chimyon). Sho'rsuvda ilgari oltingugurt va ozokerit qazib olinardi, hozirda esa uning zaxiralarini sanoat ahamiyati qolmagan.

Aholi turmush tarzi faqat ijtimoiy-iqtisodiy omillargina emas, balki tabiiy-geografik sharoit ta'sirida ham shakllantiriladi. Bunda aholisi va turmush tarzida ta'sir etuvchi tabiiy sharoit sifatida quyidagi omillar tahlil qilindi va o'rganib chiqildi:

1. Relyef (tog'li, adirli yoki tekislik hududlar);
2. Iqlim (mo'tadil, kontinental, subtropik, cho'l iqlimi va hokazo);
3. Suv resurslari (daryolar, kanallar, suv omborlari, yer osti suvlari);
4. Tuproq va o'simlik dunyosi (unumdor yerlar, yaylovlar, cho'l zonasidagi tuproqlar va hokazo);
5. Foydali qazilmalar (neft, gaz, rangli va nodir metallar, qurilish materiallari va h.);
6. Tabiiy xavf-xatar omillari (seysmiklik, sel, toshqin, ko'chki, bo'ronlar).

Ushbu tabiiy omillar aholi xo'jalik faoliyati va yashash tarziga **bevosita** yoki **bilvosita** ta'sir etadi. Masalan, tog'li hududlarda chorvachilik, dehqonchilikning tog'-vodiy sharoitiga mos turlari rivojlangan bo'lsa, cho'l hududlarida yerlar faqat suv bilan ta'minlangandagina dehqonchilik qilinadi. Shuningdek, suvga boy hududlar "yig'iq, gavjum" aholi punktlariga ega bo'lib, sanoat va qishloq

xo'jaligi ham rivoj topishi mumkin. Iqlimi keskin kontinental bo'lgan joylarda esa yashash tarziga mos infratuzilma (issiq uylar, sovuqni e'tiborga olgan binolar, energetika ta'minoti va hokazo) zarur bo'ladi [1].

Xo'jalikni tashkil etishda tog'li hududlar asosan chorvachilik uchun qalay sharoit yaratsa-da, amalda keyingi yillarda tog'li hududlardan bog'dorchilikda ham foydalanilmoqda. Bundan tashqari tog'li hududlar turizm maqsadlari uchun ham juda qulay xo'jalikni tashkil etish imkoniyatini shakllantirmoqda. Shuning uchun tog'li hududlarda asosan qo'ychilik, echkichilik, bog'dorchilikda - tog' yon bag'ridagi uzumzorlar, mevazorlar, turizmga tog' sayohatlari, chang'i, ekstrimal turizmga asos bo'lmoqda.

Tekislik hududlarida esa asosan dehqonchilik uchun yaxshi sharoit yuzaga kelgan. Sug'oriladigan tekislik yerlarda dehqonchilik, paxtachilik, g'allachilik, bog' va polizchilik tashkil etiladi. Katta shaharlarni tashkil etish ham tekisliklarda qulayroq bo'ladi.

Iqlimni ham xo'jalikni shakllantirishdagi roli juda ahamiyatli hisoblanadi. Masalan mo'tadil iqlim dehqonchilikka va meva-sabzavotlar yetishtirishga juda qulay hisoblanadi. Keskin kontinental iqlim (sovuqqa chidamli va issiqqa mos ekinlar) iqlim esa aholi turmush tarzida doimiy iqlimga moslashuvchanlik seziladi. Issiq mavsumda suvga talab oshishi, sovuq mavsumda energiya ta'minotiga bo'lgan ehtiyoj ortishi bilan izohlanadi.

Albatta xo'jalikni tashkil etish haqida gap ketganda suv omilining rolini unutmaslik kerak. Ayniqsa sug'oriladigan yerlar masalasi bu o'rinda muhimlaridan biridir. Sug'oriladigan yerlar – aholi zichligi va turmush tarzi bilan bevosita bog'liq. Cho'l-adir zonasida asosan daryo bo'ylari, kanallar, ariqlar atrofida aholi zichlashadi. Bundan tashqari suv manbalarining barqarorligi (sel, toshqin yoki mavsumiy suv tanqisligi) ham muhim hisoblanib, turmush tarziga ta'sir qiluvchi salbiy omil rolini ham bajarishi mumkin. Sel oqimlari dehqonchilikka, shaharsozlikka juda katta zarar yetkazadi.

Tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining ham xo'jalikni tashkil etishda roli mavjud. Unumdor tuproqlar paxta, g'alla, meva-sabzavot yetishtirish uchun foydali bo'ladi. Aholi esa aynan unumdor tuproqli yerlarda qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida band bo'ladi. Yashil yaylovlar esa chorvachilik uchun foydali hisoblanib, tog' etaklaridagi bahor-yozgi yaylovlardan foydalanish asosiy turmush tarzini belgilaydi.

O'tgan asrni 50-60 yillaridan keyin foydali qazilmalar ham xo'jalikni tashkil etishda asosiy omillardan biri bo'lib qoldi. Foydali qazilmalar qazib olinishi bilan qazilma topilgan yoki uni qayta ishlaydigan hududlarda shu xo'jalikka jalb etilgan aholi ortidan xo'jalik shakllanadi. Konlar atrofida shaharlar, ishchilar posyolkalari paydo bo'lishi, aholi bandligining sanoatga yo'naltirilishi o'ziga xos ishlab chiqarish hududlarini shakllantiriladi. Lekin bunday xo'jaliklarni tashkil etilishi aksar hollarda oqibatlar salbiy holatga tushib qolganlari ham mavjud. Mavjud konlarda resurslarning tugashi, konlarda xizmat qiladigan va bevosita xo'jalikni yuritishni shu kon bilan bog'lagan oilalar uchun bunday vaziyatlar oila daromadlarini yo'qolishiga, oila xo'jaligini o'zgarishiga va oilalarni boshqa hududlariga ko'chib o'tishigacha olib borilishi mumkin.

Xo'jalikni tashkil etishda shuningdek, turli tabiiy xavf xatarlar ham ta'sir etadi. Seysmik zonalarda binolarni, uy-joy qurilishida mustahkam konstruksiyalarga ehtiyoj zarur bo'lsa, sel, suv toshqinlari xavfi bor joylarda himoya dambalari, suv inshootlari, maxsus sug'urta tizimlari zarurati tug'iladi. Ko'chki (tosh ko'chishlari) xavfi bor tog'oldi hududlarida turmush tarzi hamda joylashuv rejasini qat'iy rejalashtirishda ahamiyatli hisoblanadi.

Farg'ona viloyatida 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 4061,5 ming yoki mamlakat aholisining yaqin 11,0 foizi yashaydi. O'zining demografik salohiyati bo'yicha u mamlakatimizda Samarqand viloyatidan keyingi 2 o'rinda turadi.

Ma'muriy tuzilishiga ko'ra 4 ta viloyatga bo'ysinuvchi shahar, 15 ta qishloq tumanlari mavjud. Yuqorida keltirilgan raqam va holatlar shundan dalolat beradiki, Farg'ona viloyatining demografik "yuki" og'ir, aholisi zich, hududi yuqori darajada o'zlashtirilgan, boshqaruv tizimi murakkab. Viloyat darajasida, eng avvalo, tuzilgan qishloq tumanlari Oltiariq, Beshariq va Uchko'prik sanaladi. Ular 1926 yilda tashkil etilgan. Nisbatan "yangirog'i" esa Furqat tumani, u 1992 yilda ushbu maqomni olgan.

Viloyatning ma'muriy - siyosiy jihatdan "zichligi" uning qishloq tumanlarini uncha katta emasligi va bir-biridan bu borada katta farq qilmasligiga sabab bo'ladi. Chindan ham, mintaqaning har bir qishloq tumaniga o'rtacha 0,45 ming kv km maydon to'g'ri keladi. Bu respublikaning ayrim hududlari, jumladan cho'l va tog'li mintaqalariga qaraganda juda kichik raqam hisoblanadi.

GEOGRAFIYA

Viloyatning eng katta tumani-Beshariq 0,77 ming kv km maydonni egallasa, Toshloq tumanida 0,24 ming kv km maydon bor; farq 3,2 martaga teng. Hududi birmuncha kattaroq qishloq tumanlari viloyatning tog'oldi, adir yoki "cho'iroq" qismlarida joylashgan. Masalan, O'zbekiston yoki Beshariq tumanlari shular jumlasidandir. Tipik tog'li tuman-So'x maydoni bo'yicha uncha yirik emas, u Rishton tumanidan ajralib chiqqan. Ancha qumliklarga ega bo'lgan Furqat tumani esa bir vaqtlar Beshariq tumani tarkibida bo'lgan.

Farg'ona viloyati respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rinni egallaydi. U malakatimiz yalpi ichki mahsulotining 7,5 foizini, sanoat ishlab chiqarishini 8,9 %, qishloq xo'jalik mahsulotlarining 8,4 % ta'minlaydi; investitsiyalar hajmi 5,3 va kapital qurilishlar 4,5 %. Viloyatga O'zbekiston eksportining 4,3 va importning 5,3 foizi to'g'ri keladi. Ko'rinib turibdiki, Farg'ona viloyati ba'zi sohalarida ko'zga ko'rinarli nisbiy ko'rsatkichlarga ega bo'lsa-da, bu raqamlar ko'p hollarda uning mavjud demografik sig'imidan past. Demak, bu yerda ham ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ko'tarish masalasi dolzarbdir.

"Tabiat-aholi - xo'jalik" uchlik tizimida aholi markaziy o'rinda turadi. U tabiatga ta'sir qiladi, undan oladi, foydalanadi, xo'jaligini tashkil etadi va o'z hayotini kechiradi. Tabiat, aholi va xo'jalikning o'zaro munosabati umumgeografik va, ayni vaqtda, geoekologik vaziyatni yuzaga keltiradi. Shu sababdan ham bu "uchlik" geografiya fanida olib borilayotgan tadqiqotlarda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Farg'ona vodiysi, jumladan Farg'ona viloyatida tabiat, aholi va xo'jaligi piramida shaklida tasvirlansa, tabiati "yupqa" va nozik, demografik yuki katta, xo'jaligi o'rtacha ko'rinishga ega bo'ladi [3]. Aholi va xo'jalikning birgalikdagi ta'siri o'ziga xos zo'riqish, kuchli antropogen bosimni keltirib chiqaradi. Mintaqaning asosiy ijtimoiy geografik muammosi ham ana shu bosimni yengillashtirish, aholi hayoti va faoliyati uchun tegishli shart - sharoitlar yaratishdan iborat bo'lmog'i lozim. Sababi, aynan demografik bosim, yer - suv zahiralarning yetishmasligi, ozligi mintaqa ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishida yangicha, zamonaviy, industrial - innovasion rivojlanish strategiyasi va yo'nalishlarini taqozo etadi.

Viloyatda aholi o'sish sur'ati o'rtacha darajada, qishloq tumanlaridagi 1989 - 2024 yillardagi o'sish ko'rsatkichlari esa 1-jadvalda keltirilgan. Ko'rilayotgan o'ttiz besh yillik davr mobaynida eng yuqori o'sish darajasi Quva, Yozyovon, Toshloq va Oltiariq tumanlarida qayd etiladi. Shu bilan birga, Qo'shtepa, Rishton, O'zbekiston, Beshariq va Farg'ona tumanlarida aholining o'sishi nisbatan pastroq bo'lgan. Beshariq va Rishton tumanlarida bunday vaziyat asosan ularning tarkibidan yangi ma'muriy birliklarni ajralib chiqishi - Furqat va So'x tumanlarining tashkil etilishi tufayli yuzaga kelgan.

Farg'ona viloyati respublikamizda aholisi o'ta zich joylashgan mintaqalardan biri hisoblanadi. Bu yerda har bir kv km maydonga 600,8 kishi to'g'ri keladi. Bu ham demografik bosimning yuqoriligidan darak beradi. Bu xususda ayniqsa, Toshloq (895,5), Buvayda (886,0 kishi) va Uchko'prik (876,6) keskin ajralib turadi. Shu sababdan mazkur tumanlarda yer maydonining tanqisligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu esa, o'z navbatida, yetarli ish o'rinlarning ozligi tufayli, ichki va tashqi migrasiyani zaruriyat qilib qo'yadi. Zichlik ko'rsatkichi eng past So'x tumanida - 380,1 kishi. Biroq bu daraja respublika o'rtacha ko'rsatkichidan deyarli uch marta ziyod. Yozyovon tumani ham Farg'ona viloyatining cho'l hududlarini o'zlashtirish asosida vujudga kelgan tumandir. Unda aholi zichligi pastroq (294,3 kishi).

Umumdemografik salohiyatiga qaraganda Quva, O'zbekiston, Beshariq, Uchko'prik, Buvayda, Bog'dod, Farg'ona va Oltiariq tumanlarida aholi soni 200 mingdan ortiqroq. Viloyat aholisining milliy tarkibini o'zbeklar 88,1 %, tojiklar 5,9 foiz, shuningdek boshqa millat vakillari tashkil qiladi. O'zbeklar barcha shahar va qishloq tumanlarida, tojiklar asosan So'x tumanida yashashadi. Rus va umuman g'ayri mahalliy millatlar Qo'qon va, ayniqsa Farg'ona shaharlarida ko'proq.

Aholi soni to'liq uning tabiiy ko'payishi negizida ko'payib bormoqda. Tug'ilish boshqa viloyatlarda kuzatilganidek, bu yerda ham asta-sekinlik bilan ko'tarilish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Bizning tahlillarga ko'ra, bu jarayon mamlakatimizda 2006 yilda boshlangan bo'lib, u aholining demografik tarkibi, uning takror barpo bo'lish xususiyatlari bilan izohlanadi. Qizig'i shundaki, respublikamizda barqaror iqtisodiy rivojlanish asosan 1996 yildan boshlangan bo'lsa, demografiyada bu davr yoki burilish o'n yil keyin yuzaga keldi.

Farg'ona viloyati aholisi soni va dinamikasi tuman va shaharlar miqyosida hududiy tafovutlarga ega. Shuningdek, aholi joylashuvi va zichligi bo'yicha ham sezilarli hududiy farqlarni kuzatish mumkin (2-jadval). Aholi zichligini tahlil qilish orqali hududning eng maqbul demografik sig'imini hisoblash dastlab, ma'lum bir taklif ishlab chiqish amaliyotda keng qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda esa aholi zichligini o'rganishga alohida geografik yondashuv zarurligi aytilmoqda.

Shuningdek, Yu.Ahmadaliyev tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda aholi zichligi dastlab tabiiy birliklar doirasida o'rganilib, so'ngra olingan natijalar tahlili bilan ma'muriy birliklarda o'tkazilishi taklif etilgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yerlar miqdorini o'rganish yordamida dastlab aholining hududga (maydonga) bo'lgan tabiiy ehtiyoji, oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish imkoniyatlari baholanadi. Bundan tashqari, bu ko'rsatkich aholi va ishlab chiqarish tarmoqlarining, birinchi navbatda qishloq xo'jaligini ishlab chiqarish vositasi bilan ta'minlanganlik darajasini ham aks ettiradi. Binobarin, tahlillarda, jamiyatning bugungi rivojlanish bosqichida, resurs sifatida ishlatilayotgan yerlarga diqqat - e'tibor qaratiladi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2024 yilga kelib viloyatning aholisi eng zich bo'lgan ma'muriy tuman Toshloq tumani bo'lib, unda 1 km kv maydonga 895,5 kishi to'g'ri kelmoqda. Aholi zichligi eng past ma'muriy tuman esa So'x tumani bo'lib, unda zichlik 1 km kv maydonga 380,1 kishi to'g'ri kelmoqda. Lekin respublikada o'rtacha aholi zichligi 82 kishi ekanligini hisobga olsak, viloyatning aholi zichligi eng past bo'lgan ma'muriy tumani ham respublika o'rtacha zichlik darajasidan 3 barobar ko'pdir. Bu esa o'z navbatida viloyatda aholi zichligi bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mavjud ekanligidan dalolat beradi. A.S.Soliyevning o'rtacha arifmetik qiymat orqali tahlili asosida viloyat aholi zichligi tahlil etadigan bo'lsak, aholi zichligi nisbatan past ma'muriy tumanlarga So'x (380,1), Farg'ona (362,1), O'zbekiston (343,3), Oltiariq (362,0), Beshariq (313,8), Yozyavon (294,3) tumanlari kiritiladi (1-jadval).

Aholi zichligi o'rtacha bo'lgan ma'muriy tumanlarga faqatgina Qo'shtepa, Furqat va Dang'ara tumanlari mos kelib, ularda aholi zichligi mos ravishda 565,6, 416,3 va 407,3 kishini tashkil etmoqda.

1-jadval

Farg'ona viloyati shaharlari va ma'muriy tumanlarida 1989-2024 yillarda aholi o'sishi

t/r	Shaharlar va qishloq tumanlari	Maydoni, ming km kv	Aholi soni (ming kishi)		O'sish (%) hisobida)	Aholi zichligi (kishi)	
			1989 y.	2024 y.		1989 y.	2024 y.
1	Farg'ona sh.	0,1003	198,4	321,8	162,2	1978,1	3216,6
2	Qo'qon sh.	0,037	179,6	308,1	171,5	4854,1	8242,4
3	Quvasoy sh.	0,264	59,0	101,2	171,5	223,5	383,3
4	Marg'ilon sh.	0,041	146,8	253,5	172,7	3580,5	6208,7
5	Oltiariq	0,63	116,4	228,4	196,2	184,8	362,0
6	Qo'shtepa	0,37	111,5	208,0	186,5	301,4	565,6
7	Bog'dod	0,33	108,0	233,0	215,7	327,3	698,8
8	Buvayda	0,28	111,2	247,2	222,3	397,1	886,0
9	Beshariq	0,77	157,9	242,8	153,8	205,1	313,8
10	Quva	0,44	131,1	275,8	210,4	298,0	629,5
11	Uchko'prik	0,28	113,9	241,4	211,9	406,8	876,6
12	Rishton	0,31	142,7	216,9	152,0	460,3	705,8
13	So'x	0,22	-	83,9	-	-	380,1
14	Toshloq	0,24	100,2	217,6	217,2	417,5	895,5
15	O'zbekiston	0,69	160,4	236,4	147,4	232,5	343,3
16	Farg'ona	0,62	156,5	221,5	141,5	252,4	362,1
17	Dang'ara	0,43	95,1	177,1	186,2	221,2	407,3
18	Furqat	0,31	91,0	127,1	139,7	293,5	416,3
19	Yozyavon	0,41	53,1	119,8	225,6	129,5	294,3

GEOGRAFIYA

	Jami:	6,76	2141,7	4061,5	189,6	316,8	600,9
--	--------------	-------------	---------------	---------------	--------------	--------------	--------------

Jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Aholi zichligi yuqori bo'lgan ma'muriy tumanlarga Toshloq, Uchko'prik, Buvayda, Bog'dod, Rishton va Quva tumanlari kiritilib, ularda 1 km kv maydonga 629,5 kishidan 985,5 kishigachani tashkil etmoqda. Aynan shuning uchun ushbu ma'muriy tumanlarda ijtimoiy muammolarning ortishi kuzatiladi.

Aholi soni to'liq uning tabiiy ko'payishi negizida ko'payib bormoqda. Tug'ilish boshqa viloyatlarda kuzatilganidek, bu yerda ham asta-sekinlik bilan ko'tarilish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Bizning tahlillarga ko'ra, bu jarayon mamlakatimizda 2006 yilda boshlangan bo'lib, u aholining demografik tarkibi, uning takror barpo bo'lish xususiyatlari bilan izohlanadi. Qizig'i shundaki, respublikamizda barqaror iqtisodiy rivojlanish asosan 1996 yildan boshlangan bo'lsa, demografiyada bu davr yoki burilish o'n yil keyin yuzaga keldi.

2024 yilda Farg'ona viloyati bo'yicha tug'ilish har ming kishiga 25,7 promilleni tashkil qilgan (respublika darajasidan yuqoriroq). Qayd etish lozimki, mazkur ko'rsatkich Qo'shtepa, Uchko'prik va Dang'ara tumanlarida ancha yuqori; 29,6, 29,6 va 29,1 ‰ (2-jadval).

Geodemografik vaziyatning mamlakat miqyosida tahlili tug'ilishning aynan tog'li yoki tog'oldi hududlarda joylashgan tumanlarda ko'pligini ko'rsatadi (Chiroqchi, Nurobod, Qo'shrobo, Boysun, Sariosiyo tumanlaridagi holat shunga yaqin yoki shu darajada). Farg'ona viloyatida oxirgi yillarda So'x tumanida 2000 yillarda ancha yuqori tug'ilish koeffitsiyenti kuzatilgan - 24,7 ‰. Lekin bugungi kunda vaziyat ancha meyorlashgan. Tug'ilish shahar joylarning ba'zilarida 2008 - 2009 yillarda birmuncha pasaygan. Masalan, u Farg'ona shahrida 19,5 dan 19,0 promillega, Marg'ilonda 22,4 dan 21,7 ga tushgan. Agar Farg'ona shahrida tug'ilish "urbanistik muhit" ga xos bo'lsa, Marg'ilonda u ancha yuqori, hatto So'x (22,1 ‰) va Quva tumanlaridan (24,5 ‰) oldinda.

Aholining tabiiy ko'payish geografiyasini uning tug'ilish darajasidagi hududiy tafovutlar belgilab beradi. Binobarin, ushbu ko'rsatkich So'x, Beshariq, Yozyovon, Bog'dod, Buvaydada yuqori, Oltiariq, Farg'ona, Furqat va Quva qishloq tumanlarida biroz pastroq.

Yuqorida ta'kidlanganidek, aholi zich, uning nisbiy va mutloq ko'pligidan migratsiya ham kelib chiqadi. Farg'ona viloyati bu qoidadan mustasno emas. So'ngi yillarda tashqi migratsiya 0,3 promilleni tashkil qilgan. Agar bu ko'rsatkich, aholi tabiiy ko'payishi, ya'ni 21,6 ga qo'shilsa, u holda haqiqiy demografik o'sish 21,9 promille yoki 2,2 foizga teng bo'ladi.

2-jadval

Farg'ona viloyati aholisining tabiiy harakati va migratsiyasi
(har ming aholiga nisbatan, 2024-yil 1-yanvar holatiga)

t/r	Shahar va tumanlar nomi	Tabiiy harakat			Aholi migratsiyasi		
		tug'ilish	o'lim	tabiiy ko'payish	kelganlar	ketganlar	migratsiya qoldig'i
1	Farg'ona sh.	22,9	5,4	17,5	13,0	7,6	5,4
2	Qo'qon sh.	25,9	4,9	21,0	0,8	3,9	-3,1
3	Quvasoy sh.	25,6	4,2	21,4	4,8	3,3	1,5
4	Marg'ilon sh.	25,9	4,7	21,2	0,1	4,6	-4,5
tumanlar:							
1	Oltiariq	26,4	4,6	21,8	0,8	1,9	-1,1
2	Qo'shtepa	30,0	4,4	25,6	2,7	1,6	1,1
3	Bag'dod	27,9	4,9	23,0	0,1	1,5	-1,4
4	Buvayda	27,9	3,9	24,0	0,7	1,7	-1,0
5	Beshariq	24,3	4,5	19,8	1,0	2,6	-1,6
6	Quva	24,3	4,4	19,9	0,8	2,4	-1,6
7	Uchko'prik	28,5	4,4	24,1	0,7	1,4	-0,7
8	Rishton	26,7	4,2	22,5	0,9	1,9	-1,0
9	So'x	25,1	4,2	20,9	1,4	0,8	0,6
10	Toshloq	26,6	4,3	22,3	1,7	2,0	-0,3
11	O'zbekiston	24,3	5,1	19,2	1,2	2,3	-1,1

12	Farg'ona	26,7	4,8	21,9	2,6	4,7	-2,1
13	Dang'ara	29,1	4,8	24,3	2,3	1,6	0,7
14	Furqat	25,7	4,7	21,0	2,9	2,5	0,4
15	Yozyovon	25,5	3,8	21,7	1,2	1,7	-0,5
	Viloyat	26,2	4,6	21,6	2,2	1,9	0,3

Jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Bu, albatta, ancha yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Salbiy migratsiya Qo'qon va Marg'ilon shaharlari (minus 3,1 va 4,5 %), Oltiariq (minus 1,1), Bog'dod (minus 1,4), Buvayda (minus 1,0), Beshariq (minus 1,6), Quva (minus 1,6), Uchko'prik (minus 0,7), Rishton (minus 1,0), Toshloq (minus 0,3), O'zbekiston (minus 1,1), Farg'ona (minus 2,1), Yozyovon (minus 0,5 %) tumanlarida ko'proqni tashkil etmoqda. Farg'ona, Quvasoy shaharlarida, Qo'shtepa, So'x, Dang'ara, Furqat tumanlarida ijobiy holatni aks ettirmoqda.

Aslini olganda, aholining milliy tarkibidan kelib chiqib, Farg'ona shahrida tashqi migratsiya kuchliroq bo'lishi mumkin edi. Ehtimol, oldingi yillardagi katta migrasion "yo'qotish" bu shaharda to'xtadi va uning migratsiya resursi yoki imkoniyati ancha pasaydi. Marg'ilon shahridagi bunday vaziyat tasodifiy emas, chunki dunyoning ko'pgina mamlakatlarida iqtisodiy muammolar (bu markazlar "monoshaharlar", ya'ni bir sohaga tor ixtisoslashgan hisoblanadi) tufayli ana shunday demografik holat kuzatiladi. O'zimizning ko'mirchilar shahri – Angrenda ham shunga o'xshash jarayonlar kechmoqda. Demak, bunday sanoat markazlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, funksional tarkibini diversifikatsiyalash zarur.

Viloyatning hududiy - urbanistik tarkibi yaxshi rivojlangan; bu yerda 3 ta yirik shahar va 1 ta katta shahar mavjud: Farg'ona (321,8 ming kishi), Qo'qon (308,1 ming), Marg'ilon (253,3 ming kishi) shaharlari yirik shaharlar va Quvasoy (101,2) katta shahardir. Bunday "to'rtlik" respublikamizda faqat Toshkent viloyatida bor, xolos - Chirchiq, Angren, Olmaliq va Bekobod. Biroq, poytaxt viloyatiga taqqoslaganda Farg'onada o'rta bo'g'in shaharlar tizimi rivojlanmagan. "Ellikminglik" shahar viloyatda faqatgina Quva shahridir, unda 54,6 ming, undan keying yirikroq shahar Rishtonda 41 ming aholi mavjud. Qolganlarida aholi soni bundan kam. Kichik shahar va shaharchalar soni 2009-yilda yanada ko'paydi, demak, urbanistik tarkib maydalashdi, kichik shaharlar muammosining dolzarbligi yanada kuchaydi. Shu yilda birdaniga 196 ta qishloqlarga yangi shaharcha maqomi berildi, bunday betakror urbanistik holat bo'yicha respublikamizda viloyat birinchi o'rinda turadi. Ma'lumki, O'zbekistonda jami 968 ta yangi shaharchalar - agrosaharlar vujudga kelgan bo'lsa, ularning har beshtadan bittasi (1/5 qismi) aynan birgina Farg'ona viloyati xaritasida paydo bo'lgan.

XULOSA

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, Farg'ona viloyatida so'nggi yillarda demografik jarayonlar nisbatan faollashdi. Salbiy demografik jarayonlardan tug'ilishning kamayganligi, ajralishlarning ko'payganligi ortgan bo'lsa ham viloyat aholisining umumiy soni muttasil ko'payib bormoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan faol insonga yo'naltirilgan demografik siyosat, kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash yo'lidagi sa'y-harakatlar oqibatida viloyat bo'yicha migratsiyaning ijobiy tomonga o'zgarganligini qayd etish zarur. Biroq, Qo'qon, Marg'ilon shaharlarida va Oltiariq, Buvayda, Beshariq, Quva, Uchko'prik, Rishton, Toshloq, O'zbekiston, Farg'ona va Yozyovon tumanlarida hali ham salbiy migratsiya saldosi saqlanib qolmoqda. Shuningdek, viloyatning o'rtacha tabiiy ko'payishi ko'rsatkichi 21,6 promilleni tashkil etgan bo'lib, Qo'shtepa, Buvayda, Uchko'prik, Rishton, Toshloq, Farg'ona, Dang'ara va Yozyovon tumanlarida tabiiy ko'payish viloyat o'rtacha darajasidan yuqori holati qayd etilgan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Farg'ona viloyati so'nggi yillardagi demografik jarayonlar ancha faol kechmoqda.

O'zbekistonning eng seraholi mintaqasi hisoblangan Farg'ona vodiysining katta demografik yukiga ega bo'lgan - Farg'ona viloyatida demografik jarayonlarni izchil, maqsadli va ilmiy jihatdan o'rganib borish amaliy ahamiyatga ega. Kelgusi tadqiqotlarda viloyatning ma'muriy tumanlari doirasida demografik jarayonlarni va xo'jalik yuritishning yangi davr an'analari haqida tahlillari taqdim etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

GEOGRAFIYA

1. Ahmadaliyev Y., Abduvaliyev X. Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'rni va ahamiyati. FarDU xabarlari, 2024 yil, 1-son ilova to'plami "Geografiya". 6-14 b.
2. Солиев А., Назаров М., Қурбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. Монография. "Мумтоз сўз" нашриёти. Тошкент, 2010
3. Тожиева З.Н. Аҳолишунослик ва ижтимоий-иқтисодий тараққиёт// Ер ҳақидаги фанлар: истиқбол ва муаммолар. Республика илмий-амалий конференция материаллари. –Тошкент, 2017. –Б. 120-122.; 117-б.
4. Ўзбекистон Миллий атласи, I-жилд. Тошкент, 2020
5. Ҳасанов И.А., Ғуломов П.Н., Қаюмов А.А. Ўзбекистон табиий географияси. 2-қисм. Тошкент, 2009